

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|   |     |
|---|-----|
| <b>R.A.Axrorova</b>   |     |
| «Yosh» tushunchasining lingvistik talqini .....   | 317 |
| <b>G.M.Xoшимов</b>  |     |
| Некоторые константы грамматики, касающиеся структурных особенностей гипотаксемы с адвербальным компонентом темпоральности.....                          | 322 |
| <b>N.Z.Abduraxmonova, O.O.Yulbarsov, G'.G'.Abduvaxarov</b>  |     |
| Neologizm – kompyuter lingvistikasida tahlil birligi sifatida .....   | 329 |
| <b>M.Sharipova</b>  |     |
| Ingliz tilida onomatopeik so'zlarning fonosemantik tahlili .....  | 334 |
| <b>A.O'.Abdullayev</b>  |     |
| Ramzlarda shakl va mazmun munosabatlari.....  | 337 |
| <b>O'.A.Xudoynazarova</b>   |     |
| Islom ta'lomi asosida shakllangan diniy barqaror birikmalar .....   | 344 |
| <b>F.R.Turg'unova</b>   |     |
| Grammatik kompressiya orqali yangiliklar sarlavhalarini optimallashtirish. Strategiyalarni o'rganish va auditoriyani jalb qilish .....                  | 349 |
| <b>M.A.Abduvaxobova</b>   |     |
| Fransuz va o'zbek tillaridagi "Famille" – "Oila" semantik maydoniga doir .....  | 354 |
| <b>M.A.Kurbanov</b>   |     |
| Muloqotda noverbal vositalar yordamida madaniyat, urf-odatlar va adab shakllarining ifoda etilishi .....  | 358 |
| <b>M.M.Kaxarova, Sh.B.Tolipova</b>  |     |
| Nemis tilida og'zaki nutqni hamkorlik orqali rivojlantiruvchi mashq turlari va ulardan samarali foydalanish .....                                       | 364 |
| <b>M.Karimov</b>  |     |
| "O'tkan kunlar" romanidagi o'xshatishning inglizcha tarjimalarda aks etish masalalari .....   | 368 |
| <b>X.P.Муртозов</b>   |     |
| Вижагиҳои савтий ва услубии ҳодисаи афзоиш дар ашъори намояндагони сабки хурсонии адабиёти тоҷику форс .....  | 374 |
| <b>N.N.Odilova</b>  |     |
| A comparative analysis of spellonyms in contemporary english and uzbek literature .....   | 384 |
| <b>M.B.Shamsiyeva</b>   |     |
| Peyzaj matni murakkab sintaktik butunlik sifatida .....   | 388 |
| <b>I.T.Rustamov</b>   |     |
| Ingliz va o'zbek folklor janr matnlarining semantik maydoni .....   | 392 |
| <b>К.Ю.Феруза</b>   |     |
| Многоаспектная природа английских и русских провербальных фразеовербализаторов концепта «head/голова/глава» и их лингвостилистические особенности ..... | 396 |
| <b>С.Э.Сайдова</b>  |     |
| Манзараи этнӣ-диалекталии аҳолии сурхондарёи шарқӣ .....  | 401 |
| <b>G.A.Komilova</b>   |     |
| Ingliz tilida siyosatchilar nutqida stilistik vositalarning nutq ta'sirchanligini oshirish vositasi sifatida qo'llanilishi .....                        | 406 |
| <b>С.Ч.Мачитова</b>   |     |
| Антрапонимҳо – ифодагари хислатҳои инсон дар ғазалиёти абдураҳмони чомӣ .....   | 410 |
| <b>M.A.Matmusayeva</b>  |     |
| Maktabgacha ta'lilda o'yinlar- soha terminlari sifatida .....   | 419 |
| <b>Y.Sh.Shuxratova</b>  |     |
| Sintaktik sathda o'xshatishlarning tabiatiga doir .....   | 423 |
| <b>H.H.Xoldorova</b>  |     |
| Study of the concept of "Field" in modern linguistics .....   | 426 |
| <b>D.I.Mirzayeva</b>  |     |
| Contextual-semantic analysis of fixed similes in english .....  | 429 |
| <b>K.T.Israillova</b>   |     |
| Ijtimoiy tarmoqlar tili va medialingvistika tavsifi .....   | 432 |



УО'К: 81'286:159.922.4

**MULOQOTDA NOVERBAL VOSITALAR YORDAMIDA MADANIYAT,  
URF-ODATLAR VA ADAB SHAKLLARINING IFODA ETILISHI**

**ВЫРАЖЕНИЕ КУЛЬТУРЫ, ОБЫЧАЕВ И ФОРМ ЭТИКЕТА  
С ПОМОЩЬЮ НЕВЕРБАЛЬНЫХ СРЕДСТВ В РЕЧИ**

**THE EXPRESSION OF CULTURE, CUSTOMS AND FORMS OF ETIQUETTE BY USING  
NON-VERBAL MEANS IN SPEECH**

Kurbanov Muzaffar Abdumutalibovich 

Andijon davlat chet tillari instituti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada o'zbek, ingliz, turk va rus tillarining shaxslararo muloqotida noverbal vositalar yordamida milliy madaniyat, urf-odat va adab shakllarining ifodalanishi keltirilgan. Unda insonlarning nutq madaniyati, ma'naviyati va ijtimoiy xulq-atvorlari to'rtta tillar kesimida tadqiq etilgan. Muloqotda noverbal vositalarga oid urf-odatlar va adab shakllari qo'llanish sharti, maqsadi, o'zaro munosabati, mazmuni va ijtimoiy odob-axloq talablangiga ko'ra alohida guruhlarga ajratib chiqilgan. Shuningdek, asrlar o'tib umum qabul qilingan til muloqoti, urf-odatlar, qadriyatlar yoki madaniyatini aks ettiruvchisi noverbal vositalar tadqiqi qilinayotgan tillarda geografik hudud nuqtayi nazardan tahsil qilingan. Noverbal muloqotda foydalilanligi urf-odatlar tizimi va milliy madaniyatni dunyoga tanitishda ham muhim o'rinn egallagan olimlarning fikr-mulohazalari keltirib o'tilgan.*

**Аннотация**

Данная статья посвящена выражению национальной культуры, обычая и форм этикета с помощью невербальных средств в межличностной коммуникации на узбекском, английском, турецком и русском языках. Исследованы культура речи, духовность и социальное поведение людей в разрезе четырех языков. Обычаи и формы этикета, связанные с использованием невербальных средств в коммуникации, были классифицированы в отдельные группы в зависимости от условий применения, целей, взаимосвязей, содержания и требований социальной морали. Кроме того, проведен анализ невербальных средств, отражающих общепринятый язык общения, обычай, ценности или культуру, сформировавшихся на протяжении веков, с точки зрения географического расположения исследуемых языков. Приведены мнения ученых, подчеркивающих важную роль системы обычая и национальной культуры, используемых в невербальной коммуникации, в их популяризации на мировом уровне.

**Abstract**

*This article examines the expression of national culture, customs, and forms of etiquette through nonverbal means in interpersonal communication in Uzbek, English, Turkish, and Russian languages. It explores speech culture, spirituality, and social behavior of people across these four languages. Customs and forms of etiquette associated with the use of nonverbal communication were classified into separate groups based on their conditions of application, purposes, interrelations, content, and social moral requirements. Furthermore, an analysis was conducted on nonverbal means reflecting the universally accepted language of communication, customs, values, or culture formed over centuries, considering the geographic location of the languages studied. The article also includes opinions of scholars emphasizing the significant role of the system of customs and national culture used in nonverbal communication in promoting these aspects on the global stage.*

**Kalit so'zlar:** noverbal muloqot, paralingvistik vositalar, noverbal vositalar, imo-ishoralar, madaniyatlararo muloqot, milliy madaniyat, urf-odatlar, adab shakllari.

**Ключевые слова:** невербальная коммуникация, паралингвистические средства, невербальные средства, жесты, межкультурное общение, национальная культура, обычаи, формы этикета.

**Key words:** non-verbal communication, paralinguistic means, non-verbal means, gestures, cross-cultural communication, national culture, customs, forms of etiquette.

**KIRISH**

Jamiyatda adab shakllarini o'zida mujassam etgan noverbal vositalar milliy madaniyat, urf-odat va qadriyatlar saqlab qolishning eng qulay usuli bo'lib, kelajak avlodga oddiy so'z bilan ta'riflab bera olmaydigan san'at durdonalari (*musiqa, rassomlik, xaykaltaroshlik, she'riyat, naqsh, teatr*) va

## TILSHUNOSLIK

muloqot madaniyatini yetkazib berishga xizmat qiladi. Shu bois, noverbal vositalar tilshunoslar qatori faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar, adabiyotshunoslar, tarixchilar, biologlar, san'atshunoslar, madaniyatshunoslar va boshqa soha vakillarining tadqiqot obyektiga aylandi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Har bir xalqning madaniyati, ma'naviyati va urf-odati umuminsoniy qadriyatlar bilan naqadar bog'liq bo'lganligi, uning jahon sivilizatsiyasi tarixiga qo'shgan hissasi va tutgan o'mi bilan belgilanadi. Nafaqat Sharqda, balki butun jahonda qadimiy millatlardan biri bo'lgan o'zbek xalqining milliy madaniyati uzoq tarixiy davrni qamrab oladi.

O'zbek milliy noverbal vositalari nutqda inson xarakter jihatlari, madaniyati, ma'naviyati, dunyoqarashi, fikrlash qobiliyati, kayfiyati va suhbatidan ko'zlangan maqsadlarini tamomila ochib beradi. Ammo, ingliz va amerikaliklarda kayfiyatning yaxshi yoki yomonligini faqatgina uning yuzidagi tabassumdan ilg'ab olish mumkin. Qolgan jihatlarini aniqlash bir oz mushkullik tug'diradi. Chunki, ingliz va amerikaliklarning fikricha, muloqot jarayonida inson yuzidagi tabassum suhbatdoshga nisbatan bo'lgan hurmatini va samimiyligini ifoda etadi. Biroq, ruslar muloqotda asossiz tabassum qilish yoki jilmayishga odatlanmagan bo'lsa, usmonli turklarda deyarli jiddiylik namoyon bo'ladi. Ularning fikricha, suhbat jarayonida tinimsiz mulozamat ko'rsatish inson xarakteridagi asl jihatlarini yashirish va qaysidir ma'noda qisman ayyorlik belgilarini ifoda etadi.

Noverbal muloqotda foydalananiladigan urf-odatlar tizimi xalqning milliy madaniyatini dunyoga tanitishda ham muhim o'rinn egallaydi. Ayrim tadqiqotchilar urf-odatga oid paralingvistik vositalarni til kabi alohida milliy mazmun-mohiyatga ega deb hisoblaydi. Masalan, T.Nikolayeva asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tayotgan milliy urf-odat va madaniyatni xuddi til kabi tadqiq qilish lozimligini aytgan [9, 65].

A.Nurmonovning ta'kidlashicha, bir tilda gaplashuvchi xalq vakilining ikkinchi tilda gaplashuvchi xalq doirasida ham erkin muomala qila olishi uchun bu xalqning tilini mukammal bilishi bilan birga uning muomala madaniyati, urf-odati, imo-ishoralari va boshqa bir qator shu xalq uchun xarakterli tomonlarini ham chuqur o'rganishga to'g'ri keladi. Jahonning turli xalqlari o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar juda kuchaygan hozirgi davrda yuqorida ko'rsatilgan omillarni o'rganish ehtiyoji yana ham ortmoqda [2, 157].

A.Dikijining aytishicha, har bir jamiyatda yaxshi-yomon, chiroyi-xunuk va odamlarning xulq-atvorini belgilovchi qadriyatlari mavjud. Qadriyatlар jamiyatda kishilar o'rtasida keng tarqalgan va odatiy xatti-harakatlardan iborat. Jamiyat o'tmishidagi baxtli va azobli hayotiy voqealar qadriyatga katta ta'sir o'tkazadi. Vaqt o'tishi bilan ular jamiyatda an'anaga aylanadi [11, 253].

F.Poyatos Turkiya, AQSh va Kanada xaqlarining noverbal vositalari, urf-odatlari va madaniyatlararo muloqotiga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha, mazkur xalqlarda salomlashishning har xil ko'rinishlari turli madaniyatni belgilaydi. Masalan, Turkiyada uzoq vaqt ayrılıqdan so'ng ota bilan o'g'il yoki aka-ukalar quchoq ochib ko'rishishlari hamda turli yoshdag'i nabiralar tomonidan bobo va buvilarining o'ng qo'llini o'pib, peshonasiga surtish holatlari milliy qadriyatga aylangan. Ammo, AQSh va Kanadada uzoq uchrashuvdan so'ng ota bilan o'g'ilning shunchaki qo'l berib salomlashishi odatiy bir holat deb qaraladi [16, 221-222].

Shuning uchun ham ingliz tilidagi milliy noverbal vositalarni tadqiq qilishda Angliya, Uels, Shotlandiya, AQSh, Avstraliya, Kanada va boshqa inglizzabon xalqlarning madaniyatlararo muloqotiga asoslanishni lozim deb hisoblaymiz. Chunki, bugungi kunda rasman 19 ta mamlakatlarda ingliz tili – rasmiy davlat tili hisoblanadi. Ularning tili, tarixi va adabiyotini o'rganish mazkur tilda olib borilsa-da, milliy madaniyati, urf-odati va noverbal muloqotlari bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan, inglizlar o'z suhbatini og'ir-bosiqlik, past ovoz ohangi va ortiqcha imo-ishora harakatlarsiz olib borishni ma'qul ko'rib, jamoat diqqat e'tiborini o'ziga jalb qilmaslikka harakat qilishadi. Ammo, avstraliyalik yoki amerikaliklarda buning aksini ko'rish mumkin. Go'yoki ular suhbat davomida atrofdagilardan sir saqlamayotganligini namoyish qilish maqsadida, nutqni yuqori ohangda, ochiq oydin va tez-tez gapirishni ma'qul ko'rishadi.

A.Sadoxin insonni har tomonlama uyg'un kamol topishiga o'z madaniy vakolati darajasida til, urf-odatlar, an'analar va madaniy qadriyatlarni puxta egallashi bilan belgilanadi deb aytgan [4, 25]. Chunki, muloqotda mumkin bo'lgan shaxslararo qarama-qarshilik inson xulq-atvori, yot bo'lgan noverbal vositalar va milliy urf-odatlarini to'liq tushunib yetmasligidan kelib chiqadi.

A.Pizning aytishicha, muloqotda verbal vositalalar axborotni yuborish kanali bo'lib xizmat qilsa, noverbal vositalalar shaxslararo munosabatlarga "oydinlik" kiritish vositasi sifatida e'tirof etiladi [3, 9].

T.Nikolayeva va B.Uspenskiylar rus tilshunoslida paralingvistik vositalarning kelib chiqishi yuzasidan ikki xil guruhlarga ajratishni tavsiya qilgan:

- tabiiy paralingvistik vositalalar – *biologik hodisalar oqibatida yuzaga kelgan tabiiy va hamma uchun umumiy ma'noga ega bo'lgan harakatlar*,
- an'anaviy paralingvistik vositalalar – *madaniyat va an'analarga xos bo'lgan harakatlar* [9, 73].

M.Saidxonov o'zbek tilida noverbal vositalardan tarkib topgan va ishlatib kelinayotgan muomala shakllariga quyidagilarni kiritgan:

- rituallar (udumlar) – *urf-odat bilan bog'liq xatti-harakatlar va ulaming yig'indisi (marosim jarayoni)*;
- etiket formalari (adab shakllari) – *muomala jarayonidagi odob qoidalari*;
- imo-ishoralar – *aloqa-aratashuvda ma'lum axborot uzatuvchi harakatlar* [7, 22].

Shu boisdan, turli xalqlarning madaniyatini tadqiq qilishda, adab shakllari: milliy qadriyat, urf-odat, an'nana, axloq, xulq-atvor, udum, rasm (rasm-rusum, rasm-odat), taomil va marosimlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslikni tavsiya qilamiz. Chunki, mazkur iboralalar garchi, mutlaq sinonim so'zlar bo'limasa-da, ular bir-biriga juda ham yaqin, ayrim vaziyatda nutqda biri ikkinchisining ekvivalenti o'mida ishlatilishi mumkin.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot ishi doirasida o'zbek, usmonli turk, ingliz va rus tillari muloqotida noverbal vositalalar yordamida ifoda etiladigan urf-odat, adab shakllari va ijtimoiy-madaniyatga oid yig'ilgan materiallar tahlili va tadqiqot ishi natijalarining muhokamasi quyidagilardan iborat.

O'zbek tilida noverbal vositalalar yordamida adab shakllari *urf-odat, qadriyat, an'ana, udum, rasm (rasm-rusum, rasm-odat), axloq, xulq (xulq-atvor) taomil va marosim (ishora) harakatları* orqali ifodalaniladi.

Masalan: *Temurbek otdan irg'ib tushdi va qo'llarini ko'ksiga qo'yib bu yerda turganlarga ta'zim qildi* [6, 20].

Usmonli turk tilida noverbal vositalalar yordamida urf-odat va adab shakllari *görenek* (urf-odat), *örf* (urf), *adet* (odat), *alışkanlık*, *alışmışlık*, *alıştı*, *meleke*, *ünsiyet* (odat, xulq), *ahlak* (axloq), *davranış* (xulq-atvor), *değer* (qadriyat), *gelenek*, *an'ane* (an'ana) va *tören*, *merasim* (marosim) ishora harakatları (so'z iboralari) bilan ifodalanadi.

Masalan: *Polis başını sallayarak onayladı ve adam yere diz çökerek çantasını yanına yerleştirdi* [14, 337].

Mazkur keltirilgan misollarga ko'ra, qardosh bo'lgan o'zbek va usmonli turk tillarida noverbal vositalalar yordamida urf-odat va boshqa adab shakllarining muloqotda ifodalanishi deyarli bir xil **vaziyat** va **makon** bilan bog'liq ekanligi aniqlandi.

Ingliz tilida ham noverbal vositalarni o'zida mujassam etgan milliy urf-odat va adab shakllari *customs* (urf-odat), *tradition* (an'ana), *institution* (urf, an'ana), *practice* (odat), *ceremony* (marosim, muloyim xulq-atvor), *rite* (marosim, an'ana, ritual), *ritual* (ritual, marosim), *habit* (odat), *manners* (odob-axloq qoidalari), *ethics* (xulq-atvor, etiket), *convention* (urf, xulq), *used to, usage* (odat), *unwritten rule* (tartib), *disposition*, uning sinonimlari: *temper, ways, character* (xulq, fe'l-atvor) va *conformity* (xulq) kabi ishora harakatları (so'z iboralar) bilan ifodalanadi.

Masalan: *The man was still silent, but suddenly he bowed down almost to the ground, touching it with his finger. 'What is it?' cried Raskolnikov* [15, 634].

Rus tilida noverbal vositalalar yordamida ifoda etiladigan urf-odatlar va adab shakllari *обычай* (odat), *традиция* (urf-odat), *обряд* (marosim), *ритуал* (ritual, marosim), *церемония* (marosim, an'ana), *нрав* (fe'l-atvor), *привычка* (odat, xulq), *поведения* (xulq) va *характер* (xulq, fe'l-atvor) kabi ishora harakatları (so'z iboralar) bilan belgilanadi.

Masalan: *Поляков пожал плечами. Достав из кармана пиджака удостоверение – протянул его женщине. Но та даже не посмотрела на красные корочки. Она продолжала изучать лицо Полякова* [10, 14].

## TILSHUNOSLIK

Milliylar, ijtimoiy, diniy yoki madaniy noverbal vositalarni o'zida aks ettirgan o'zbek, usmonli turk, ingliz va rus xalqlarining urchodatlari va adab shakllari muloqotda ijobjiy, ba'zan esa salbiy mazmunni ifoda etishi mumkin.

Masalan:

O'zbek tilida – *Ikkinci oylardan boshlab Xushro'y kundashini bo'g'ib urish odatini chiqaradir va o'rim-o'rim kundash sochini alafdek yulib olishdan ham tortinmaydir* [5, 197].

Turk tilida – *Benim evimde ailemden, akrabamdan olmayan bir genç kızla yaşamamın örfə ve seriata aykırı göründüğünü söylemiş* [18, 381].

Ingliz tilida – *D'Artagnan, who for an hour past had been gnawing his nails with impatience, was beginning to attack the quick* [12, 250].

Rus tilida – *Д'Артанян, мало понимавший из их разговора, от нетерпения грыз ногти* [1, 235].

Davrlar o'tishi bilan millatlarning madaniyati, ma'naviyati, urchodati va qadriyatiga bo'lgan munosabati o'zgarib boradi, ularda yangilanish bo'ladi, lekin avvalgisi yo'q bo'lib ketmaydi. Aksincha, kelajak avlod uchun milliy-tarixiy meros bo'lib saqlanib qoladi. Ularning ayrimi umumiy xarakterga ega bo'lsa, qolgani esa bir millatning o'ziga xos merosi bo'lib qolaveradi. Natijada, ayrim urchodatlar vaqtlar kelib tarixiy an'anaga aylanishi yoki ijtimoiy-oilaviy urchodatlar esa milliy-madaniy darajaga chiqadi. Shunga ko'ra, ayrim urchodatlarga oid noverbal vositalar davrlar o'tib o'z ahamiyatini yo'qotishi va eskirib iste'moldan chiqarib yuborilishi mumkin. Bu kabi noverbal vositalarni biz tarixiy-an'anaviy paralingvistik vositalar deb atashni tavsiya qilamiz.

Masalan:

O'zbek tilida – *Ha, turk va mug'ul hoqonlarining urchodati shunaqa edi. O'zining amir yoki begimi, elchimi yo bo'lmasa savdogarmi, bari-bir xonning huzuriga kirganda, tiz cho'kib taxt poyigacha emaklab borishi va xonning oyoqlarini o'pishi shart edi* [6, 422].

Turk tilida – *Gelinliğin üzerine bağlanan kırmızı kurdeleler, nişan törenlerinde yüzüklerle bağlanan kırmızı kurdeleler, okumaya yeni geçmiş çocukların yakasına takılan kırmızı kurdeleler hep uğuru ve kismetini temsil eder* [19].

Ingliz tilida – *If he knocked on the wooden walls while he spoke of his good fortune, he would cover the sound of his voice, and the gods would not hear him* [17, 312].

Rus tilida – *На возвышенностях разжигали костёр, высокая огонь двумя кусками дерева: участникам обряда это должно было придать сил, урожаю – дать плодородность, а животным – плодовитость* [13].

Aslini olib qaralganda, yuqoridaq kabi vaziyatlar insonlarning millati, dini, madaniyati yoki irqidan qat'i nazar bir xil kechib, ular ijtimoiy falsafa, tarix yoki psixologiya nuqtayi nazaridan tadqiq qilishga muhtojdir. Ammo, lingvistik nuqtayi nazardan noverbal muloqot va uning komponent vositalarining milliy va madaniy xususiyatlarini inobatga oлган holda tadqiq qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki, tili o'rganilayotgan millatning noverbal muloqot vositalarini puxta egallagan izlanuvchida xorijlik suhabatdoshi bilan erkin suhabat olib borish, uning madaniyati va urchodatlarini puxta egallah darajasini oshiradi.

Shuningdek, asrlar o'tib umum qabul qilingan til muloqoti, urchodatlar, qadriyatlar yoki madaniyatini aks ettiruvchi noverbal vositalar bir geografik hududda esdan chiqib borsa, ikkinchisida esa boshqa yoki qo'shimcha ma'no-mazmun kasb etadi. Ma'muriy hududlarni aniq bir geografik atrof-muhit (*tog'*, *adir*, yoki *suv yo'li*) bilan chegaralanib qo'yilishi vaqtlar o'tib mamlakatlararo, millatlararo yoki madaniyatlararo farqlarni keltirib chiqarishga asos bo'ldi. Bu kabi noverbal vositalarni *makon bilan bog'liq paralingvistik vositalar* deb atashni tavsiya qilamiz. Masalan, Markaziy Osiyo xalqlari eski urchodatlaridan olovni muqaddas sanash udumini hanuz yo'qotmadni. Balki, uning boshqa bir ko'rinishlari o'ylab topildi. Misol uchun bugungi kunga kelib mamlakatimizning ayrim hududlarida to'ya kelinni kutib olishda o't yoqish, kasal odama paxta o'girish va marhumular xotirasiga sham yoqish bilan bog'liq jarayon udum o'mida saqlanib qolingga.

Masalan: *Qishloqdan chiqarkan ikkinchi akasi Ergashga yalingan edi: "onamga fotiha o'qib yuring, payshanba kunlari kechqurun, albatta, sham yoqing"* [8, 89].

Yuqoridaq olimlarning fikr-mulohazalarini inkor etmagan holda, ularni umumlashtirish, qiyoslash va tahlil qilish asosida, biz o'zbek, usmonli turk, ingliz va rus millatlarida mavjud noverbal (paralingvistik) vositalar yordamida mazkur xalqning milliy-madaniyati, dini va ijtimoiy-siyosiy

yashash turmush-tarzini belgilab beruvchi urf-odat va adab shakllarini quyidagi 7 ta guruhlarga ajratishni tavsiya qilamiz:

a) milliy urf-odatlar – ayni bir millatga tegishli bo'lgan rasm-rusum va adab shakllari (*milliy kiyinish, milliy raqs, mehmonga dasturxon yozish, uni yuqoriga o'tkazish, eshik oldida kutib olish va taom tanovul qilishni kattadan boshlash holatlari*);

b) madaniy urf-odatlar – jamiyatda insonning boshqalarga o'rnatilgan va doimiy bajariladigan madaniy, axloq harakatlari va adab shakllari (*yuqori hurmat o'mida o'ng qo'llini ko'ksiga qo'yib salom berish, otiliqni piyodaga birinchi bo'lib salom berish va boshqa holatlari*);

v) diniy urf-odatlar – inson yoki jamoaning o'z diniy qarashlari va me'yor talablari asosida bajariladigan rasm-rusum va amallari (*musulmon olamida har bir ezgulik uchun duo qilish xislati, barcha dinlarda bo'lgani kabi taom tanavvul qilishdan avval minnatdorlik amallari va boshqalar*);

g) oilaviy urf-odatlar – jamiyatda ayni bir harakatlarni oilaviy bajarishga o'rgangan an'nasi va rasm-rusmlari (*oilada chaqaloqning alohida belgisiga ko'ra ism qo'yish, erta tongda kelin salom va boshqa harakatlar*);

d) ijtimoiy urf-odatlar – jamiyatda insonning ijtimoiy xulq-atvorini belgilab beruvchi xulq-atvor, harakatlari va adab shakllari (*inson tashqi ko'rinishi va ijtimoiy mavqeiga ko'ra kiyinishi, muloqot qilishi yoki munosabatda bo'lishi*);

ye) hududiy urf-odatlar – inson yoki jamoa tomonidan doimiy bajarib kelinadigan harakatlarning ayni bir hududga tegishli bo'lishi va boshqa hududlardan farq qilishi (*bir hududga oid milliy raqs, inson nutqidagi farqli imo-ishoralar va hududiy kiyinish odob harakatları*);

j) kasbiy urf-odatlar – insonning kasbiga oid xizmat majburiyatini bajarishga qaratilgan odatiy harakatlari va adab shakllari (*harbiylarda chest berishi orqali salomlashish, buyruqqa itoat qilish yoki murojaat qilishga izn olishdagi harakat va amallari*).

Mazkur urf-odatlar nutqda vaziyat, muhit, vaqt, o'rtadagi munosabat, ruhiy holat va xalqaro odob-axloq normalariga muvofiq turli xil kichik guruhlarga, o'z navbatida ular ham boshqa bo'linmalarga ajralishi mumkin. Chunki, yuqorida berilgan misollardan ko'rinish turibdiki, ayni bir xil noverbal vositalar davrlar o'tishi yoki muloqot mazmuniga ko'ra, hattoki bir vaqtning o'zida ham milliy-madaniy, ham ijtimoiy-madaniy ma'no kasb etishi mumkin.

### XULOSA

Bugungi kunda jamiyatda eng dolzarb muammo sifatida qaralayotgan – muloqot madaniyati, shu jumladan, muloqotning noverbal turi hozirgi davr ijtimoiy-gumanitar fanlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunga har qaysi o'rganilgan xalqlarning milliy madaniyati va qadriyatlar boy tarixga ega ekanligi, ularda noverbal vositalari qadimdan mukammal til va nutqning tizimi sifatida tashkil topganligi sabab bo'lmoqda. Shu boisdan ham o'zbek, usmonli turk, ingliz va rus xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va milliy-madaniy urf-odati va qadriyatlarida kuzatiladigan noverbal muloqot komponentlarini ilmiy o'rganish nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Noverbal muloqotni to'liq tadqiq qilishdagi muammo yechimi, natijasi va xulosalari madaniyatimiz taraqqiyoti rivojiga hissa qo'shadi. Lingvistik nuqtayi-nazardan olganda, noverbal (paralingvistik) vositalarni tadqiq qilish va undan to'g'ri foydalanishga o'rgatish, o'zga millatning tili va nutqini o'zlashtirishga qulay imkoniyat yaratadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Дюма А. Три мушкетера. –М.: ЛитРес, 2015. – 680 стр. (Dumas A. Tri mushketera. M.: LitRes, 2015. – P. 680)
2. Николаева Т., Успенский Б. Языкознание и паралингвистика // Лингвистические исследования по общей и славянской типологии. –М.: Наука, 1966. – 63-74 стр. (Т.Николаева, Б.Успенский. Языкознание и паралингвистика // Лингвистические исследования по общей и славянской типологии. – М.: Наука, 1966. – Стр. 63-74)
3. Пиз А. Язык телодвижений. –М.: Эксмо-през, 2010. – 258 стр. (Pease A. Yazik telodvijeniy. –M.: Eksmpres, 2010. –P. 258)
4. Питерский Я. Перспектива смерти. – Киев: ИП Стрельбицкого, 2015. – 320 стр. (Я. Питерский. Перспектива смерти. –Киев: ИП Стрельбицкого, 2015. – С. 320)
5. Садохин А. Введение в теорию межкультурной коммуникации. –М.: KnoRus, 2014. – 254 стр. (Садохин А. Введение в теорию межкультурной коммуникации. –M.: KnoRus, 2014. – C. 254)
6. Ahmedov B. Amir Temur. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1995. – 640 b.
7. Dikici A. Geleneklerin toplumdaki yeri ve önemi. Fitrat Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, 11 (2). ELAZIĞ, 2001. – S. 253.
8. Dostoevsky F. Crime and Punishment. Penguin Classics, 2002. – P. 634.

**TILSHUNOSLIK**

9. Dumas A. The Three Musketeers. Modern Library, 2001. – P. 625
10. Güntekin R. Çalikuşu. İstanbul, 2017. – S. 381
11. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. –T.: Akademnashr, 2012. – 403 b.
12. Ойбек. Кутлуг қон. Учинчи том. –Т.: Фоур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашириёти, 1969. – 390 б.
13. Poyatos F. Nonverbal Communication across Disciplines. Amsterdam /Philadelphia. John Benjamins B.V., 2002. – P. 474
14. Қодирий А. Ўткан кунлар. –Т.: Фоур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашириёти, 1974. – 494 б.
15. Saidxonov M. Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar. –T.: Fan, 2008. – 83 b.
16. Stoker B. Drakula. Ceviren: Pınar Güncan – İstanbul: Bordo Siyah Yayınları, 2018. – S. 624
17. Trimbur J. The Call to Write, Brief Fifth Edition. – Wadsworth, Cengage Learning, 2011. – P. 627.
18. Türklerin gelmiş geçmiş en eski gelenekleri//URL:[www.yenisafak.com/foto-galeri/hayat/turklerin-gelmis-gecmis-en-eski-gelenekleri-2032725](http://www.yenisafak.com/foto-galeri/hayat/turklerin-gelmis-gecmis-en-eski-gelenekleri-2032725)
19. Warnke A. (Ne) zabitije slavyanskiye obryadi i obichai // URL: [culture.pl/ru/article/nezabytye-slavyanskie-obryady-i-obychai](http://culture.pl/ru/article/nezabytye-slavyanskie-obryady-i-obychai)